



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI .....	12
<b>Urazov Jamshidjon Sa’dullayevich</b>	
<b>Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O’RNI .....	16
<b>Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi</b>	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH .....	20
<b>Abbos Saydullaev</b>	
<b>Iqboloy Choriyorova</b>	
O’ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI .....	31
<b>Ibragimova Rayxon Tojibayevna</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA “ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)” MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	36
<b>Elnoraxon Muminova Abdukurimovna</b>	
<b>Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi</b>	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI .....	42
<b>Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi</b>	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	47
<b>Narzulloeva Fariza Akmalевна</b>	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION .....	53
<b>Gaybullayev Sarvar Uktam ugli</b>	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI .....	59
<b>Mizamova Umida Jamoliddin qizi</b>	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O’RNI .....	64
<b>Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich</b>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O’RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	72
<b>Olimova Shahlo Bahodir qizi</b>	
<b>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</b>	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES .....	76
<b>Akmal Komiljonovich Shermukhamedov</b>	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI .....	81
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o’g’li</b>	



# XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti 1-bosqich tayanch doktoranti.

Toshkent, O'zbekiston

Email: investor.0523@gmail.com

## Annotatsiya

Mazkur maqolada xususiylashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat mulkini xususiy sektor tasarrufiga o'tkazish natijasida boshqaruv samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda investitsion faollikning oshishi asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida xususiylashtirish siyosatining zamonaviy bosqichlari, uning fiskal, institutsional va ijtimoiy natijalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari xususiylashtirishning iqtisodiy o'sish, raqobat muhiti va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** xususiylashtirish, iqtisodiy samaradorlik, davlat mulki, bozor mexanizmlari, investitsiyalar, raqobat muhiti, institutsional islohotlar.

## Аннотация

В данной статье проводится теоретический и эмпирический анализ влияния процессов приватизации на экономическую эффективность. Обосновано, что передача государственной собственности в частный сектор способствует повышению эффективности управления, рациональному использованию ресурсов и росту инвестиционной активности. Рассмотрены современные этапы приватизационной политики в Узбекистане, а также ее фискальные, институциональные и социальные результаты. Результаты исследования подтверждают важную роль приватизации в обеспечении экономического роста, развитии конкурентной среды и повышении инвестиционной привлекательности.

**Ключевые слова:** приватизация, экономическая эффективность, государственная собственность, рыночные механизмы, инвестиции, конкурентная среда, институциональные реформы

## Abstract

This article provides a theoretical and empirical analysis of the impact of privatization processes on economic efficiency. The study demonstrates that the transfer of state assets to the private sector enhances management efficiency, improves resource allocation, and stimulates investment activity. It also examines the modern stages of privatization policy in Uzbekistan, including its fiscal, institutional, and social outcomes. The findings confirm that privatization plays a significant role in promoting economic growth, strengthening competition, and increasing investment attractiveness.

**Keywords:** privatization, economic efficiency, state property, market mechanisms, investment, competition environment, institutional reforms.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda xususiylashtirish jarayonlari davlatning iqtisodiy tizimdagi o'rni va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy modelda davlatning asosiy vazifasi to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etishdan ko'ra, tartibga soluvchi, muvofiqlashtiruvchi va institutsional sharoitlarni yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, xususiylashtirish davlatning iqtisodiyotdagi ortiqcha ishtirokini qisqartirish, bozor mexanizmlarining erkin ishlashiga yo'l ochish va resurslar taqsimotining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Davlat mulkini xususiylashtirish — davlat mulkini xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish, xususiylashtirishga tayyorlash, xususiylashtirish dasturiga kiritilgan davlat mulkini tasarruf etishga nisbatan cheklovlarni aniqlash, xususiylashtiriladigan davlat mulkini baholashdan o'tkazish va uning boshlang'ich narxini belgilash tartibida jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarga realizatsiya qilish”<sup>1</sup> tushuniladi.

1 O'zbekiston Respublikasining 14.02.2024 yildagi O'RB-907-son “Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonuni.



Ushbu qonundan kelib chiqib, xususiylashtirish – bu davlat mulkini xususiy sektor tasarrufiga o'tkazish jarayoni bo'lib, u iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu jarayon natijasida korxonalarda mulkdorlik munosabatlari o'zgaradi, boshqaruv tizimi yanada moslashuvchan va natijaga yo'naltirilgan shaklga o'tadi. Xususiy mulkdorlarning manfaatdorligi yuqori bo'lgani sababli, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda bozor talablariga tezkor javob berishga intiladi. Bu esa korxonalar faoliyatining umumiy rentabelligini oshiradi.

Bundan tashqari, xususiylashtirish jarayonlari iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqobatning kuchayishi esa innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, yangi texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi hamda iste'molchilar uchun sifatli va arzon mahsulotlar taklif etilishiga olib keladi. Shu bilan birga, xususiylashtirish investitsion jozibadorlikni oshirib, ichki va tashqi kapital oqimini ko'paytiradi, natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi.

O'zbekiston Respublikasida ham "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida:

"Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish;

Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish"<sup>2</sup> kabi maqsadlar keltirib o'tilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek iqtisodchi tadqiqotchilaridan Z.T.Gaibnazarova, Sh.A.Isamuxametovlar "Davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartibtaomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish"<sup>3</sup> kabi vazifani ilgari surishgan.

Iqtisodchi Joseph Stiglitz ta'kidlaganidek, "Davlat sektori faoliyatida ko'pincha byurokratik cheklovlar, markazlashgan boshqaruv tizimi va past darajadagi iqtisodiy rag'batlar mavjud bo'lib, bu holatlar resurslardan optimal foydalanishni murakkablashtiradi. Davlat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonlarining sekinligi, mas'uliyatning diffuziyasi hamda samaradorlikka emas, balki ma'muriy topshiriqlarga yo'naltirilgan boshqaruv modeli ko'pincha iqtisodiy natijalarning past bo'lishiga olib keladi.

Aksincha, xususiy sektor faoliyati bozor mexanizmlariga tayangan holda shakllanadi va bunda foyda olishga intilish asosiy harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Bozor rag'batlari – raqobat, talab va taklif muvozanati, investitsion manfaatdorlik – xususiy korxonalarni samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va innovatsiyalarni joriy etishga undaydi. Natijada xususiy sektor resurslardan foydalanishda yanada tejamkor va natijador faoliyat yuritishga intiladi"<sup>4</sup>.

Shu nuqtai nazardan, xususiylashtirish jarayoni iqtisodiy islohotlarning ajralmas va zaruriy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiy mulkdorlar qo'lga o'tkazish orqali boshqaruv sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xususiylashtirish investitsiyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy qilish hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Joseph Stiglitz o'z ilmiy qarashlarida xususiylashtirishni mutlaq ijobiy jarayon sifatida emas, balki uni samarali amalga oshirish uchun institutsional muhit, shaffoflik va davlat nazoratining muvozanati zarurligini ham ta'kidlaydi. Demak, xususiylashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi bo'lishi bilan birga, puxta rejalashtirilgan va ilmiy asoslangan siyosatni talab etuvchi murakkab islohot jarayoni hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda xususiylashtirish siyosati jadallashib, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini chuqur va tizimli o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, institutsional yondashuv hamda empirik tahlil usullariga tayangan holda shakllantirildi. Xususan, quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni.

3 Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: «IQTISODIYOT», 2020. 156-bet.

4 Stiglitz, J. E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector. Economics of the Public Sector. USA & Dependencies, Philippines and Canada. <https://www.norton.com/books/9780393925227/about-the-book>



Metod nomi	Mazmuni (tavsifi)	Tadqiqotdagi vazifasi
Nazariy tahlil	Xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarish bo'yicha ilmiy adabiyotlar, iqtisodiy nazariyalar va konsepsiyalarni o'rganish	Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish, asosiy tushunchalarni aniqlashtirish
Qiyosiy tahlil	Milliy va xalqaro xususiylashtirish tajribalarini o'zaro solishtirish	Turli modellarning samaradorligini baholash va umumiy xulosalar chiqarish
Statistik tahlil	Davlat ulushi, xususiylashtirilgan aktivlar hajmi, byudjet tushumlari kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilish	Xususiylashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini empirik asoslash
Tizimli yondashuv	Xususiylashtirish jarayonini o'zaro bog'liq iqtisodiy omillar tizimi sifatida o'rganish	Jarayonning kompleks xarakterini ochib berish
Kontent-tahlil	Normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy manbalarni mazmuniy o'rganish	Davlat siyosati va xususiylashtirish mexanizmlarini aniqlashtirish

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 6-aprel kuni Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish<sup>5</sup>ga doir takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda "Mamlakatimizda keyingi yillarda xususiylashtirish va investitsiyalar jalb qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda iqtisodiyotda davlat ulushi 42 foizni, davlat ishtirokidagi korxonalarining soni esa 1 ming 685 tani tashkil etmoqda. Xususan, o'tgan yili qariyb 30 trillion so'mlik davlat aktivlari xususiylashtirilib, budjetga 10 trillion so'mdan ortiq tushum ta'minlandi. Yer uchastkalarini sotish hajmi ham izchil oshib, 6 trillion so'mlik natijaga erishilganligi"<sup>5</sup> qayd etildi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tahlil qilishda davlat rahbari tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, mamlakat iqtisodiyotida davlat ulushining 42 foizni tashkil etishi hali ham davlat sektori salmoqli o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalar sonining 1 685 taga tengligi iqtisodiy tizimda davlat aktivlari keng qamrovli ekanini anglatadi. Bunday sharoitda xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bir yil davomida qariyb 30 trillion so'mlik davlat aktivlarining xususiylashtirishning qo'lga o'tkazilishi natijasida byudjetga 10 trillion so'mdan ortiq tushum ta'minlangan. Bu esa xususiylashtirishning fiskal samaradorligini, ya'ni davlat byudjetini to'ldirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yer uchastkalarini sotish hajmining 6 trillion so'mga yetgani investitsion faollik oshib borayotganidan dalolat beradi.

Ilmiy nuqtai nazardan ushbu ko'rsatkichlar xususiylashtirishning uch asosiy iqtisodiy funksiyasini tasdiqlaydi: birinchidan, davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish; ikkinchidan, bozor mexanizmlarini kengaytirish orqali raqobat muhitini kuchaytirish; uchinchidan, investitsiya oqimini faollashtirish. Shu jihatdan, mazkur statistik ma'lumotlar xususiylashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ilmiy asoslash uchun muhim empirik dalil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, hududiy manfaatdorlik mexanizmining joriy etilishi (viloyatlar darajasida 2,6 trillion so'm va mahallalarda 7 milliard so'm mablag' qoldirilishi) xususiylashtirish jarayonlarining markazlashmagan boshqaruv modeliga o'tayotganini bildiradi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni hududiy darajada ham oshirish imkonini yaratadi. Davlat korxonalarini tomonidan byudjetga 49 trillion so'm dividend to'lanishi esa ularning hali ham iqtisodiyotdagi muhim fiskal manba ekanligini ko'rsatadi.

Obyektiv tahlillar xususiylashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Xususan, past rentabellik bilan ishlayotgan 362 ta davlat korxonasi va moliyaviy barqarorligi pasaygan 451 ta subyektning mavjudligi davlat aktivlarini boshqarish modelini institutsional jihatdan yangilashni talab etadi. Bu holat xususiylashtirishni faqat mulkni o'tkazish emas, balki boshqaruvni modernizatsiya qilish jarayoni sifatida ko'rish lozimligini ta'kidlaydi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur ma'lumotlar xususiylashtirishning kompleks iqtisodiy ta'sirini ko'rsatadi. Bir tomondan, u byudjet tushumlarini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, samarali institutsional yondashuv, raqamli boshqaruv tizimlari va

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 06.04.2026 yildagi Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish masalalari muhokamasi taqdimot. [https://president.uz/oz/lists/view/9076?utm\\_source](https://president.uz/oz/lists/view/9076?utm_source)



sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, davlat aktivlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish xususiyashtirish jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, xususiyashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat aktivlarni xususiy sektor qo'liga o'tkazish darajasi bilan, balki ularni boshqarish sifati, investitsion majburiyatlar, texnologik modernizatsiya va institutsional muhitning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv xususiyashtirishni iqtisodiy o'sishning barqaror omiliga aylantirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tasarrufidagi ayrim korxonalarining past rentabellik bilan ishlayotgani (362 ta korxonalar) hamda moliyaviy barqarorligi pasaygan subyektlar (451 ta korxonalar) mavjudligi korporativ boshqaruv tizimini institutsional jihatdan yangilash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat davlat aktivlarini boshqarishda natijadorlikka asoslangan mexanizmlarni yanada takomillashtirish, qaror qabul qilishda iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirish hamda monitoring va nazorat jarayonlarini zamonaviy bozor talablari asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar E. S. Savas tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Unga ko'ra, "Xususiyashtirishning muvaffaqiyati bevosita institutsional muhitning rivojlanganligi, huquqiy bazaning mustahkamligi va boshqaruv sifatining yuqori darajada tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Agar ushbu omillar yetarli darajada ta'minlanmasa, xususiyashtirish kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi yoki hatto ayrim hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin"<sup>6</sup>.

Shu bilan birga, davlat aktivlarini boshqarish tizimiga raqamli texnologiyalar va analitik vositalarni to'liq hajmda integratsiya qilish jarayoni davom etmoqda. Tahliliy platformalardan qamrovli foydalanish boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavflarni oldindan baholash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu sababli davlat aktivlarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish doirasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy platformalarni ishlab chiqish hamda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim. Bu nafaqat xususiyashtirish jarayonlarining samaradorligini oshiradi, balki umumiy iqtisodiy boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, xususiyashtirish jarayonining samaradorligi ko'p omilli va tizimli xarakterga ega bo'lib, u nafaqat mulkchilik shaklining o'zgarishi, balki iqtisodiy muhitning umumiy rivojlanish darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Quyidagi omillar xususiyashtirish natijadorligini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi:

2-jadval  
Xususiyashtirish natijadorligini belgilovchi asosiy iqtisodiy omillar

Omil	Mazmuni (izoh)	Iqtisodiy ta'siri
Raqobat muhitining rivojlanganligi	Bozorda erkin raqobatning mavjudligi, monopoliyalarning cheklanishi	Narxlar barqarorlashadi, mahsulot sifati oshadi, samaradorlik kuchayadi
Institutsional va huquqiy baza	Qonunchilikning aniq va barqarorligi, mulk huquqlarining himoyalanganligi	Investorlar ishonchi ortadi, xususiyashtirish jarayoni shaffof va adolatli kechadi
Investitsion majburiyatlarning bajarilishi	Xususiyashtirilgan korxonalarga kiritilishi lozim bo'lgan investitsiyalar hajmi va sifati	Ishlab chiqarish kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi
Texnologik modernizatsiya darajasi	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni innovatsion asosda rivojlantirish	Mehnat unumdorligi oshadi, mahsulot tannarxi kamayadi, raqobatbardoshlik kuchayadi

Ushbu omillar tizimli xarakterga ega bo'lib, ularning mutanosib rivojlanmasligi xususiyashtirish siyosatidan kutilgan makroiqtisodiy samaraga erishish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shu bois xususiyashtirishni amalga oshirishda faqat mulkni o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki raqobat muhitini rivojlantirish, huquqiy tizimni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb etish va texnologik yangilanishlarni rag'batlantirish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida xususiyashtirish jarayonlarining iqtisodiy tizimga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinib, quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Avvalo, xususiyashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning

6 E. S. Savas – Privatization and Public-Private Partnerships. <https://www.routledge.com/Privatization-and-Public-Private-Partnerships/Savas/p/book/97811889119774>



muhim vositasi sifatida namoyon bo'lib, u korxonalarda boshqaruv sifatining yaxshilanishi, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish natijadorligining ortishiga olib keladi. Bu jarayon orqali mulkdorlik mas'uliyatining kuchayishi hamda bozor rag'batlarining shakllanishi korxonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xususiylashtirish davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirish va investitsiyalarni jalb etishda muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi. Davlat aktivlarining sotilishi natijasida byudjetga qo'shimcha tushumlar shakllanadi, shu bilan birga xususiy investorlar tomonidan kiritilgan kapital iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va umumiy iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarishi bozor mexanizmlarining to'laqonli shakllanishiga zamin yaratadi. Raqobat muhitining kengayishi, narxlarning bozor tamoyillari asosida shakllanishi hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiy tizimning barqaror va moslashuvchan rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xususiy sektorning faol ishtiroki innovatsion jarayonlarni tezlashtirib, iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshiradi.

Xususiylashtirishdan kutilgan yuqori samaraga erishish bevosita institutsional muhitning rivojlanganligi, boshqaruv tizimining sifat darajasi hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liqdir. Shu bois xususiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, shaffoflikni oshirish va samarali monitoring mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xususiylashtirish jarayonlari iqtisodiy o'sishning muhim drayveri bo'lib xizmat qiladi, ularning yuqori natijadorligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash zarur. Faqat shunda mazkur jarayonlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va uzoq muddatli farovonlikka xizmat qiluvchi samarali mexanizmga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarida raqamli boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish zarur.
- Xususiylashtirish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida yagona ochiq elektron platformalarni rivojlantirish lozim.
- Xususiylashtirilayotgan korxonalarda investitsion majburiyatlar bajarilishini monitoring qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.
- Iqtisodiyot tarmoqlarida ochiq raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor tamoyillarining ishtirokini kengaytirish va davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadga muvofiq.
- Xususiylashtirishdan keyingi davrda korxonalar faoliyatini baholovchi post-privatizatsion monitoring tizimini yaratish muhim hisoblanadi.
- Hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun decentralizatsiya va hududiy manfaatdorlik mexanizmlarini kengaytirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 14.02.2024 yildagi O'RQ-907-son "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6800515>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 06.04.2026 yildagi Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish masalalari muhokamasi taqdimot. <https://president.uz/oz/lists/view/9076>
4. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: «IQTISODIYOT», 2020. 156-bet.
5. Savas E.S. Privatization and Public-Private Partnerships. <https://www.routledge.com/Privatization-and-Public-Private-Partnerships/Savas/p/book/9781889119774>
6. Stiglitz J. E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector. Economics of the Public Sector. USA & Dependencies, Philippines and Canada. <https://wwnorton.com/books/9780393925227/about-the-book>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>